

"ROODELL" MChJ ommaviy tanlovida
ISHTIROK ETISH QOIDALARI
"#SonetUzStyle"

Mazkur Qoidalar tanlovni o'tkazish va unda Internet tarmog'idagi o'zining sahifalarida Kia Sonet markali model haqida eng yaxshi tanlov videosini yaratgan va e'lon qilgan shaxslarning ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR:

"Tanlov" – Tashkilotchi brendi bilan bog'liq bo'lgan eng yaxshi videorolikni tanlash bo'yicha tanlovda ishtirok etish istagida bo'lgan shaxslar o'rtasida Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan **musobaqa**.

"Tanlov tashkilotchisi" – "ROODELL" MChJ.

"Ishtirokchi" – videorolik e'lon qilingan vaqtda akkaunti 5 mingdan kam obunachiga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega, to'liq fuqarolik muomalasiga layoqatli, 18 yoshga to'lgan), faqat ADM Global kompaniyalar guruhi xodimlari, shu jumladan Kia brendining mustaqil dilerlari, shuningdek, ko'rsatilgan shaxslarning yaqin qarindoshlari bundan mustasno.

"Tanlov predmeti" ("Reels") – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob beradigan #SonetUzStyle alohida xeshtegi bilan tanlov ishtirokchisi tomonidan Instagram sahifasida taqdim etilgan avtomobil haqidagi tanlov videosi.

"«Reels»ni joylashtirish muddati" – ishtirokchilar tanlovda ishtirok etish uchun yaratilgan videoroliklarni joylashtiradigan davr.

"Internet-resurs" – matnli, grafik, audiovizual yoki boshqa ko'rinishda aks ettiriladigan, apparat-dasturiy kompleksda joylashtiriladigan, Internet tarmog'ida faoliyat ko'rsatadigan, o'ziga xos tarmoq manziliga va (yoki) domen nomiga ega bo'lgan www.kia.uz elektron axborot resursi.

"Ommaviy tanlovda ishtirok etish qoidalar" – Tashkilotchining Internet-resurslarida joylashtirilgan, Tanlov boshlanganligi va unda ishtirok etish shartlarini e'lon qiluvchi Tashkilotchining keng doiradagi shaxslarga murojaati.

"Tanlov komissiyasi" – Tanlovda g'olib bo'lgan ishtirokchiga sovrin berish maqsadida Internetda e'lon qilingan eng yaxshi "Reels"ni tanlab olishni amalga oshiradigan 4 kishidan iborat ekspertlar guruhi.

"Sovrin" – Kia Sonet avtomobili.

"Talab qilib olinmagan sovrin" – Tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida g'olib murojaat qilmagan yoki rad etgan sovrin.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriydir.

2.2. Tanlov shartlari:

✓ Ishtirokchi bo'lishni istagan shaxslar Tanlov shartlari bilan Tashkilotchining Internet-resursida tanishishlari kerak.

✓ Har bir Ishtirokchi Tashkilotchi tomonidan taqdim etiladigan Kia Sonet avtomobili haqidagi Reels'ni suratga olishi va uni o'zining Instagram sahifasiga joylashtirishi, @kia_uzbekistan sahifasini belgilashi va #SonetUzStyle xeshtegini qo'yishi kerak. Videoga baho berayotgan insonlarda achinish hissini uyg'otadigan qarovsiz hayvonlar tasvirlangan videokadrlar va boshqa videomateriallardan foydalanish mumkin emas. Rolik Kia brendi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Videorolikning davomiyligi – 20 soniyadan 60 soniyagacha.

✓ Ishtirokchilarning videoroliklarini tanlash (baholash) quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- *G'oyaning o'ziga xosligi. Hakamlar hay'ati quyidagilarni baholaydi: g'oyaning yangiligi va o'ziga xosligi; syujet yoki kutilmagan burilish; rolik qanchalik esda qolarli.*

- *Vizual uslub. Hakamlar hay'ati quyidagilarni baholaydi: yaxshi yoritilgan toza, aniq tasvir; ijodiy rakurslar, dinamik o'tishlar va montaj; rolik brend treki ritmiga qanchalik mos kelishi.*

- *"Kia Sonet – O'zbekiston g'ururi" g'oyasi. Hakamlar hay'ati quyidagilarni baholaydi: "Kia Sonet – O'zbekiston g'ururi" g'oyasi qanday ifodalangan; zamonaviy, dinamik avtomobil g'oyasini O'zbekiston hayoti, madaniyati, odamlari va kelajagi bilan qanchalik muvaffaqiyatli bog'lagansiz; videongiz ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadimi: faxr, quvonch, samimiylilik, daxldorlik hissi.*

- *O'zbek koloriti. Hakamlar hay'ati quyidagilarni baholaydi: madaniyatdan chiroyli va zamonaviy foydalanish: makonlar, kiyim-kechaklar, bezaklar, an'analar, taqdimot etishda samimiylilik va hurmat, bu rolik g'oyasini ochib berishda kerakli muhitni yaratishga qanchalik yordam beradi.*

✓ Tanlovda ishtirok etuvchi Reels'larni joylashtirish muddati Qoidalar Tashkilotchining rasmiy veb-saytida e'lon qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kunni tashkil etadi.

✓ Sovrin g'olibga tanlov g'olibi aniqlangani munosabati bilan Tashkilotchining final tadbirida tanlov natijalari e'lon qilingan va Tashkilotchining rasmiy veb-saytida tegishli e'lon chop etilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) ish kuni ichida topshiriladi.

2.3. 3.1-band talablarini bajarmagan shaxs tanlov ishtirokchisi hisoblanmaydi.

2.4. Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddat davomida Tanlov shartlarini o'zgartirishi mumkin.

3. TANLOVNI O'TKAZISH TARTIBI VA MUDDATI

3.1. Ishtirokchilar tomonidan "Reels"larni joylashtirish muddatlari tugagandan so'ng, Komissiya 3 ish kuni ichida mustaqil ravishda Tanlovning yarim finaliga yo'llanma beruvchi 10 (o'n) ta eng yaxshi "Reels"ni tanlab oladi.

3.2. Yarim finalga yo'l olgan har bir ishtirokchi Kia Sonet avtomobili haqida ikkinchi videorolikni suratga olishi va uni o'zining Instagram sahifasiga joylashtirishi, @kia__uzbekistan sahifasini belgilashi va #SonetUzStyle xeshtegini qo'yishi kerak. Videoni baholagan odamlarda achinish hissini uyg'otadigan qarovsiz hayvonlar tasvirlangan videokadrlar va boshqa videomateriallardan foydalanish mumkin emas. Rolik Kia brendi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Videorolikning davomiyligi – 20 soniyadan 60 soniyagacha. Finalga 2-bosqichning 3 nafar ishtirokchisi yo'l oladi. Finalchilar ro'yxati www.kia.uz rasmiy saytida e'lon qilinadi – 05.08.2025 y.

3.2. Final tadbirida (mazkur tadbir sanasi Tashkilotchining rasmiy Internet-resursida e'lon qilinadi va unga eng yaxshi 3 (uch) ta "Reels"ning yaratuvchi-ishtirokchilari taklif etiladi) finalchilarning videoroliklari namoyish etiladi.

3.3. Tanlov g'olibi tanlov komissiyasi tomonidan tanlangan finalchilar orasidan lototron yordamida tasodifiy tartibda aniqlanadi.

3.4. Tanlov natijalari to'g'risidagi axborot g'olibning F.I.Sh. ko'rsatilgan holda Tashkilotchining www.kia.uz rasmiy Internet-resursida joylashtiriladi.

3.5. Tashkilotchi Tanlov ishtirokchisining ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilmaganligi fakti aniqlangan taqdirda Sovrinni berishni rad etish huquqiga ega.

3.6. Talab qilib olinmagan Sovrinni Tashkilotchi o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etadi. Sovrinni Ishtirokchilar qayta talab qila olmaydi.

3.7. Sovrinni olishda Sovrinni olayotgan ishtirokchi shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi va tegishli Sovrinni olganligini tasdiqlovchi hujjatni (bundan keyin "Sovrinni olganligini tasdiqlovchi hujjat" deb yuritiladi) to'ldirishi kerak, unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:

- ✓ familiyasi, ismi, otasining ismi;
- ✓ tug'ilgan sanasi;
- ✓ pasport ma'lumotlari, JShShIR;
- ✓ bog'lanish telefoni va haqiqiy yashash manzili;
- ✓ hujjatning ustunlarida ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlarni ko'rsatishi va shaxsiy imzosini qo'yishi shart.

3.9. Ishtirokchi sovrinni olganligini tasdiqlovchi Hujjatni to'ldirishni rad etgan, shuningdek, to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni ko'rsatgan va/yoki barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etmagan yoki o'z vaqtida taqdim etmagan taqdirda, bunday Ishtirokchi tomonidan yutib olingan Sovrin talab qilinmagan deb hisoblanadi. Ishtirokchi Sovrinni olgan va Sovrinni olganligini tasdiqlovchi Hujjatni imzolagan paytdan boshlab, o'sha Ishtirokchi ko'rsatilgan sovrinning shikastlanishi va yo'qolishi xavfini o'z zimmasiga oladi.

3.10. Tanlov Ishtirokchisi ushbu Qoidalar shartlariga rioya qilishi, shu jumladan, Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq barcha harakatlarni belgilangan muddatlarda bajarishi, Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni mustaqil ravishda to'lashi, shuningdek, ushbu Qoidalar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi shart.

4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Ishtirokchi quyidagilarga haqli emas:

- ✓ Tashkilotchining rozilgisiz Videolardan tijoriy maqsadlarda foydalanish.
- ✓ Tanlovda ishtirok etish doirasida boshqa ishtirokchilar tomonidan e'lon qilingan materiallardan biron-bir usulda foydalanish (shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, nusxa ko'chirish, nashr etish, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish va boshqalar).
- ✓ Uchinchi shaxslar tomonidan yaratilgan videolardan (alohida fragmentlardan), tasvirlardan foydalanish.

4.2. Ishtirokchi tanlov shartlari bilan Tashkilotchining www.kia.uz Internet-resursida mustaqil ravishda va o'z vaqtida tanishib chiqish majburiyatini oladi.

4.3. Ishtirokchi Tashkilotchidan olingan ma'lumotlardan Tashkilotchi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan usullar bilan foydalanmaslik majburiyatini oladi.

4.4. Ishtirokchi Qoidalarda ko'rsatilgan barcha talablar bilan Tanlovda ishtirok etish uchun video suratga olish majburiyatini oladi.

4.5. Tanlov Ishtirokchisi Tanlov tashkilotchisi Tanlov doirasida Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan yoki u tomonidan ochiq foydalanish uchun olingan, shuningdek, uchinchi shaxslardan olingan har qanday shaxsiy ma'lumotlarni istalgan usulda qayta ishlashga haqli ekanligiga rozilik beradi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tashkilotchi va Ishtirokchi tashkil etilgan tanlov doirasidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2. Tanlov tashkilotchisi quyidagilar uchun javobgar emas:

✓ Videoning mazmuni va uning qonunchilik talablariga muvofiqligi, mualliflik huquqining buzilishi, shuningdek, uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishi mumkinligi.

✓ Tanlov ishtirokchisining Tashkilotchi tomonidan Tashkilotchining www.kia.uz Internet-resursida joylashtirilgan Tanlov g'oliblari ro'yxati bilan tanishish imkoniyati yo'qligi.

✓ Tanlov ishtirokchisining ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganligi (o'z vaqtida bajarmaganligi).

✓ Tanlov g'olibi tomonidan Tanlov natijalari e'lon qilingan paytdan boshlab bir oy ichida Sovrin talab qilib olinmagan yoki undan voz kechilgan taqdirda Sovrinning olinmasligi.

5.3. Tanlovda ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalar bilan to'liq tanishganligini va ularga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

5.4. Tanlov davomida Ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishi munosabati bilan Tashkilotchiga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan biron bir e'tiroz bildirilgan taqdirda, Ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil ravishda hal qilish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

5.5. Tanlov tashkilotchisi, agar Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlari ulardan foydalanish paytida aloqa kanallarini eshitish yoki tutib olish natijasida boshqa shaxslarga ma'lum bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

Tashkilotchi: "ROODELL" MChJ

Yuridik manzil: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Sergeli ko'chasi, 7-uy

BANK REKVIZITLARI:

Hisob raqami: 20208000804976017001

Bank: "InFinBank" AJ

Shayxontohur filiali

Bank kodi: 01141, STIR: 207151159,

IFUT: 45111

Bosh direktor: Davletiyarov D.B.